

MARKAZIY OSIYODA TEMURIYLAR DAVRIDA IQTISODIY G'OYALAR

Ishonqulova Feruza Asadovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
iqtisodiyot nazariyasi kafedrası
katta o'qituvchisi*

Akramova Umida O'ktam qizi

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
1-kurs talabasi ilmiy tadqiqotchi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Markaziy Osiyoda temuriylar davrida yashab ijod etgan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek hamda Alisher Navoiylarning iqtisodiy qarashlarini iqtisodiyot ta'limotlar tarixi fanida o'rganishning muhim afzalliklari bayon etilgan. Shuningdek, chuqur negizga ega bunday iqtisodiy g'oyalarning rivojlanayotgan O'zbekiston raqamli iqtisodiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritilib, talabalarga iqtisodiy g'oyalarning mohiyati hamda bu g'oyalar orqali iqtisodiyotni yana qanday rivojlantira olish mumkinligi to'g'risida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shoxrux Mirzo, Yangi O'zbekiston, Raqamli iqtisodiyot.

KIRISH

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo ko'plab olimlarni yetishtirib chiqqan yurt. Olimlar har qanday jabhada o'z tadqiqot va g'oyalarini ilgari surganlarlar. Iqtisodiyot sohasi ham bundan mustasno emas. Biz yosh avlod, iqtisodiy ta'limotlar tarixiy fanida ular ilgari surgan g'oyalarni chuqur o'rganib, chiqargan xulosalarimizni o'z soha va yo'nalishlarimizda tadbqiq etamiz.

Temuriylar davrining ilk namoyondasi, davlatni hamda iqtisodni boshqarishda o'ziga xos maktab yarata olgan 1336-1405-yillarda yashab ijod qilgan Movounnahr hukmdori sohibqiron Amir Temur davlatning barcha iqtisodiy masalalari: soliq yig'ish, ijtimoiy bino-bozorlar, o'lponlarni taqsimlash, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini shaxsan o'zi nazorat qilar edi. Ayniqsa, uning tosh-u tarozi to'g'riligi, odil baho tekshirilganligi, qallob va tovlamachilar bozorda barchaning ko'z o'ngida qat'iyan jazolanganligi, savdogarlarga olib kelgan mollari ustiga faqatgina 10% narx qo'yish mumkinligi haqidagi siyosatlari tahsinga sazovor. Mamlakatda ko'rilgan bunday chora tadbirlar avvalo adolatni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan va albatta aholini qashshoqlik va mamlakatni iqtisodiy tanazzulga tushib

qolishini oldini olgan. Negaki Amir Temur : *“Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasini kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohlarning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohlarning tarqoqligi esa, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.”* degan fikrni olg‘a suradi va buni amalda ham namoyon qila oladi.

Amir Temur qalamiga mansub bo‘lgan “Temur tuzuklari” asari haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu asar mazmun-mohiyatida iqtisodiy masalalar asosiy o‘rin egallaydi. U o‘zining ushbu asarida *“Davlat-u saltanat uch narsa bilan-mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir”*, deb ta’kidlaydi va bundan ko‘rinib turibdiki, u mulk va xazinani hukumatga zarur deb qaragan hamda uni hayoti davomida ko‘paytirishga intilgan. Shu o‘rinda bu olti yuz yil muqaddam ilgari surilgan g‘oyalar bugungi demokratik yurtimiz iqtisodiyotini chetlab o‘tmayapti.

Shuningdek, Amir Temur iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida Angliya va Fransiya qirollari bilan tashqi savdo aloqalarini ham yo‘lga qo‘yishni joiz deb biladi. Shu maqsad yo‘lida Sohibqiron savdogarlarga juda ulkan sharoitlarni yaratib beradi. To Mag‘ribdan Mashriqqacha savdo-sotiq ishlari uchun mukammal darajada imkoniyat yaratilgan. Masalan bir kunlik karvon yo‘lida karvonsaroylar barpo etilgan bo‘lib, karvonsaroylarda yem-xashak, otlar, oziq-ovqat, suv bo‘lgan va muntazam ravishda turli xil inshootlar, masalan, sardobalar qurilgan.

Alohida e’tirof etish lozimki, Amir Temur mamlakatda kambag‘al va gadolar bo‘lmasligi kerak degan fikrga kelgan va bu fikrga doim amal qilgan. Gadolarning barchasi ma’lum muddat oralig‘ida bir joyga to‘plangan va kerakli oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlangan holda ma’lum ish, kasb yoki hunarga jalb qilingan va shu tufayli aksariyatlar gadoylikni tashlab o‘z kasblarini topganlar. Bu esa qaysidir ma’noda mamlakatni ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam bergan.

Amir Temur ma’lum muddat ichida misli ko‘rilmagan darajada ulkan davlat yarata oldi , uch , besh va hatto yetti yillik urushlarga qaramay mamlakatda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qola oldi. Ham tashqi ham ichki savdoni rivojlantirgan holda Movorounnahrni mukammal tarzda savdo-sotiq markaziga aylantira oldi.

Amir Temur vafotidan so‘ng Shoxrux Mirzo (1394-1449) va Mirzo Ulug‘bek (1409-1449) o‘z iqtisodiy faoliyati bilan Movorounnahrda o‘z hissasini qo‘shdi. Buning yaqqol misoli sifatida Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan pulning qadr-qimmatini oshirish uchun mo‘ljallangan pul islohotidir. O‘sha davrda muomaladagi fulusiy chaqa pullar yengil vaznda bo‘lib, savdo rivojiga to‘siqlik qilgan. Ulug‘bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo‘lgan talabini qondirish uchun u bir vaqtning o‘zida

Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqli fuluslarni zarb ettirib, muomalaga kiritdi

Shu jumladan, iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi yaxshi ma‘lum. Soliq yig‘imi qancha yuqori bo‘lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir, ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo‘lgani bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to‘g‘ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan hukmdorlar soliqni iloji boricha me‘yorida saqlash va uni yig‘ishning ma‘lum adolatli usullarini qo‘llanganlar. Masalan, Ulug‘bek hukmronligi davrida g‘alla g‘aram qilinmasdan avval soliq to‘plash qat‘iyan man etilgan, chunki dehqon hosil yig‘i b olgachgina real soliq to‘lash imkoniga ega bo‘ladi.

Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan islohot katta ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Muomaladagi fulusiy pullar almashtirildi. Ulug‘bek davridagi islohotlar tovar pul munosabatlari rivojiga muhim hissa qo‘shdi. Iqtisodiyotning barqarorligiga erishildi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham iqtisodiy g‘oyalar muhim o‘rinni egallaydi. Uning asarlarida va faoliyatida ayniqsa tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan. Alisher Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma‘qullanadi, lekin tovlamachi va chayqovchi qattiq tanqid qilinadi.

Navoiyning dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari - bu 1469 yilda Husayn Boyqaroning taxtga kelishiga bag‘ishlangan «*Hiloliya*» asaridir. Husayn Boyqaroning taxtga kelishini Navoiy zulmat korong‘uligini yoritadigan «*hilol*», ya‘ni uch kunlik oy bilan tenglashtiradi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy qudrati mustahkamlanishiga, aholining ijtimoiy, moddiy ahvoli yaxshilanishiga, feodal urushlarga barham berilishiga, mamlakatda tinchlik o‘rnatilishiga ishongan. Ushbu asardan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, markazlashgan hamda qudratli davlat barpo qilishdan iborat edi.

Alisher Navoiy hazratlari o‘z asarlarida iqtisodiyotning ravnaqi inson manaviyatining kamoloti bilan uyg‘unligini takror-takror qayd etganlar. Jumladan mamlakat obodligi va yel farovonligini yuksak manaviyat bilan quyidagicha bog‘lagan: *To xirsu havas xirmoni barbod o‘lmas, to nafsu havo qasri baraftod o‘lmas, to jabr zulm jonig‘a bedod o‘lmas, el shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.*

1482 yilda yozilgan «*Vaqfiya*» asarida Alisher.Navoiy shaxsan o‘zining yerlaridan olingan daromad misolida daromadning o‘z harajatlari va oila ahliga yetarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. Boylik topishning ikkinchi yo‘liga esa, ya‘ni o‘g‘rilik, ta‘magirlik va zo‘rluk hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo‘l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan parazit

qatlamdir, deb ta’riflaydi. Alisher Navoiy ijodining durdona asarlaridan biri 1500-yilda yozilgan «Mahbub-ul-qulub» asaridir. Ushbu asarda Navoiyning iqtisodiy fikrlari mujassamlashgandir. Navoiy bu asarida jamiyatni sosial tabaqalarga bo’lib, ularning jamiyatda tutgan o’rnini ko’rsatib berishga harakat qiladi.

Yana bir temuriyzoda, Markaziy Osiyoda dunyoga kelgan, tarixdan barchaga ma’lum bo’lgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) tomonida ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda keng ko’lamda ishlar olib borilgan. Asosan u yozgan asarlardan eng ma’lum va mashhuri hisoblanmish “Boburnoma” hamda “Mubayyin” kabi to’plamlarida iqtisodiy hayotga, ayniqsa, soliq siyosatiga katta urg’u berilgan. Shuningdek, Bobur Mirzoning aynan iqtisodiy g’oya va qarashlarini o’zida aks ettirgan “Zakot to’g’risidagi katta kitob” da soliq hamda uning turlari haqida chuqur mulohaza yuritilgan. Ushbu asar mutolaasi davomida mamlakatimizning bugungi hayotida ro’y berayotgan iqtisodiy o’zgarishlarni tahlil qilish ulardan xulosa chiqargan holda amaliyotga tatbiq qilishga asqotadigan bilimlarni egallash mumkin. Ayniqsa, iqtisodiyotning tarmoqlari bo’lgan ishlab chiqarish, savdo, tijorat, soliq va boj to’lovlari bilan bog’liq bo’lgan qarashlari bizni mamnun etadi. E’tiborga molik jihati shundan iboratki, Bobur hukmronligi davrida soliq va boshqa yig’imlar to’la islomiy shariat qonunlariga amal qilingan holda olingan. Jumladan, suv solig’i misolida qarasak, agar sug’orish davrida chig’ir qursa, olgan hosilining o’ndan birining yarmini (5%) soliq uchun to’lashi lozim bo’lgan va bu eng adolatli hamda foydali soliq tizimi hisoblangan.

Ta’kidlashimiz joizki, garchi bugungi Yangi O’zbekistonimiz asta-sekinlik bilan raqamli iqtisodiyot bosqichiga o’tayotgan bo’lsada hanuz Amir Temur, Mirzo Ulug’bek hamda Alisher Navoiydek dono avlodlarimiz ilgari surgan rad etib bo’lmas g’oyalar, falsafiy qarashlar va ular yuritgan siyosat bizga asqotmoqda. Shu o’rinda ilmiy tadqiqotchi sifatida barcha talabalarga tavsiyam, avlodlar qoldirgan buyuk merosni o’rganishga chanqoq bo’laylik.

Xulosa o’rnida bugungi zamonaviy hayotimizning raqamli iqtisodiyotini temuriylar davridagi iqtisodiy qarashlar bilan chambarchas bog’liq ekanligi haqida so’z yuritamiz. Jumladan, XIV-XV-asrlardan buyon faoliyat yuritayotgan, Markaziy Osiyo hududidan o’tuvchi hamda mamlakatlarning tijorat va savdo tarmog’i hisoblangan Buyuk ipak Yo’li hozirgi kunda ham o’z o’rnini iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali saqlab kelmoqda. Shuningdek, temuriylar davrida sug’orish tizimlari hamda dehqonchilikka katta e’tibor berilgan. Aynan shu jihat hozirda resurslarni boshqarish, iqtisodiy samaradorlikka erishish, ma’lumotlar tahlili hamda optimallashtirish kabiraqamli usullarga mosdir. Yana bir e’tiborga molik jihati shuki, temuriylar davrida iqtisodiy masalalarni markazdan turib boshqarishga urinishgan bu esa hozirda soliqlarni yig’ish, infratuzilmalarni rivojlantirishga

mo'ljallangan markazlashgan platformalar, ya'ni raqamli valyuta va onlayn tizimlar yordamida iqtisodiy faoliyatlarni boshqarishdek raqamli iqtisodiyotga bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI (o'quv qo'llanma) Toshkent – 2005
2. Amir Temur “Temur tuzuklari” Toshkent “IJOD-PRESS” 2019
3. M. M Muhammedov” O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TARIXI: AMIR TEMUR DAVRIDAN TO HOZIRGI KUNGA QADAR” Toshkent-2022
4. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/2061/1569/1574>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari